



OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR

Ilmiy jurnal

2026/1

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
BIOKIMYO INSTITUTI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**“OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI:
MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR”
ILMIY JURNALI**

(№2026/1)

*Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK
Rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan Biologiya fanlari bo‘yicha
“Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga
kiritilgan*

Samarqand – 2026

Bosh muharrir: professor R.I.Xalmuradov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: professor H.A.Hushvaqto‘v, akademik B.Z.Zaripov

Mas’ul muharrirlar: b.f.f.d. (PhD)., G.G‘. Eshbekova

TAHRIR HAY’ATI

K. Davranov

J. Sattarov

B.Z.Zaripov

Oksoo Han

Xu Gui Qing

Sh. Xudoyberdiyev

K. Toderich

M. Ahmad

S.O‘roqov

T.Rajabov

A. Jabborov

X. Haydarov

X. Keldiyarov

Z.Ismailov

A.Sanaqulov

F.Xalimov

B.Alikulov

F.Kabulova

J.Kudratov

N.Rustamova

M.Nosirov

X. Jalov

M.Kuziev

F.Ro‘ziyev

N. Xasanov

A.Ahmedov

Yu. Ro‘ziyev

A. Xo‘janov

B.Islomov

B. Turayeva

B. Bozorov

S.Narzullayev

G. Eshbekova

“Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar”, “Food security: national and global problems”, “Продовольственная безопасность: национальные и глобальные проблемы» nomli ilmiy jurnalning talablari

Maqolaning formati:

Microsoft Office Word, Times New Roman, 12 o‘lchamda, 1,5 interval, yuqori va pastdan – 2 sm; chapdan – 3 sm; o‘ngdan – 1,5 sm, satr boshi (abzats) – 1,0 sm.

Maqolaning tuzilishiga qo‘yiladigan asosiy talablar: maqolaning sarlavhasi 12 so‘zdan oshmasligi kerak;

muallifning ismi, ota-sining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi, ilmiy daraja va ilmiy unvon qisqartirilmagan holatda ko‘rsatilishi lozim;

muallif (lar)ning ish joyi quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: bo‘lim (kafedra), muassasa (institut), shahar va mamlakat. Shuningdek, muallifning telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili kel-tirilishi shart;

maqolaning umumiy hajmi 8-12 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim.

Annotatsiya va kalit so‘zlar barcha maqolalar uchun 3 tilda beriladi. Annotatsiya matnining hajmi 180-200 so‘z atrofida, kalit so‘z (8-10 ta).

Ilmiy maqola matni kirish, mavzuga oid ada-biyotlar tahlili, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, xulosa hamda adabiyotlar ketma-ketligida yoritiladi. Adabiyotlar ro‘yxati alfavit tartibida rasmiylashtirish kerak.

Grafik materiallar (shu jumladan jadval va rasmlar) tavsifli va oq-qora chop etishga mo‘ljallangan, rang-lar o‘rniga shtrix, chiziq, nuqta va h.k.dan foydalanilgan bo‘lishi kerak.

Formulalar va matematik belgilar formulalar redaktoridan foydalangan holda MS Wordda yoki MathType redaktorida bajarilishi kerak.

2026-yil, 1-son

Bir yilda to‘rt marta chop etiladi

Jurnal 2021-yildan chiqa boshlagan

“Oziq-ovqat xavfsizligi: Milliy va global muammolar” ilmiy jurnali biologiya va qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy amaliy nashr hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi tomonidan 2021 yil 30-iyulda berilgan №1197-sonli guvohnomasiga binoan nashr etiladi.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Texnik muharrirlar:

G.G‘.Eshbekova, A. Sayitqulov

Tahririyat manzili:

Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.

Tel: (97) 895-37-32, (97) 398-87-17

Faks: (66) 239-15-53

e- mail: devonxona@samdu.uz

MUNDARIJA	
Matkarimov F.I. MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING MOSH (<i>VIGNA RADIATE</i> L.) O'SIMLIGIDAGI HOSILDORLIK BELGILARGA TA'SIRI	4 – 8
Muminov S.R. SAMARQAND VILOYATI OZIQABOP GIDROFIL O'SIMLIKLARINING MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI HAMDA, ULARDA TO'PLANGAN OQSIL MIQDORINING NAZARIY-POTENSIAL KO'RSATKICHLARI.....	9 – 16
Suyunov G'.T., Ro'ziqulov B.B., Norboboev J.D., Kudratov J.A. JANUBIY VA MARKAZIY O'ZBEKISTONNING TABIATAN KAMYOB, YO'QOLIB KETISH XAVFI OSTIDA TURGAN QURUQLIK MOLLYUSKALARI.....	17 – 24
Rafiyeva F. U., Oripova B. B., Qudratova M. Q., Arslanova S. K., Kushanov F. N. AYRIM DNK MARKERLARINING <i>IN SILICO</i> TAHLILI, NOMZOD GEN VA TRANSKRIPTLARNI IZLAB TOPISH.....	25 – 31
Absattorova X., Alimova D., Murodullayev D. va Rustamova N. ENDOFIT <i>ASPERGILLUS</i> TURLARIDAN AJRATILGAN IKKILAMCHI METABOLITLAR VA ULARNING FARMAKOLOGIK POTENSIALI.....	32 – 39
Nurniyozov A.A. SOYACHIL SALOB (<i>ORCHIS UMBROSA</i> KAR. ET KIR) NI MUHOFAZA QILISHGA DOIR TAVSIYALAR BERISH.....	40 – 43
Muminov S.R., Islomov B.S. SAMARQAND VILOYATI SUV HAVZALARDA <i>POTAMOGETON LUCENS</i> L. NING BIOMASSA VA MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI.....	44 – 49
Ergashev D.U., Kuziyev M.S., Sa'dullayeva M.M. BEDANALAR AYRIM QON KO'RSATGICHLARIGA SUT ZARDOBI BILAN BOYITILGAN OZUQALARNING TA'SIRI.....	50 – 55
Mo'minov D. Y. O'RTA ZARAFSHON HAVZASI TARQALGAN <i>ASPLENIUM</i> TURKUMI VAKILLARINING MORFOLOGIK TUZILISHI.....	56 – 59
Nurmatova D. M. INTENSIV BOG'LARDAGI MEVALI DARAXTLAR VA BEGONA O'TLAR NEMATODAFUNASINING SOLISHTIRMA TAHLILI.....	60– 64
Raimqulova M. M., Sanakulov A. L. TRITIKALE NAVLARINING TRANSPIRATSIYA JADALLIGIGA AZOT ME'YORLARINI TA'SIRI.....	65 – 70
Valiyev Sh.A., Rajabov T. F., Fayzullayeva K., Nasirov M.G., Mominov M.A. TURLI DEGRADATSIYAGA UCHRGAN YARIM CHO'L YAYLOVLARINING TUPROQ SHAROITINING O'ZGARISHI (Qo'shrabot yaylovlari misolida).....	71 – 76
G'ofurova G. Sh. SAMARQAND SHAHRI URBANOFLORASIDA TARQALGAN <i>EUPHORBACEAE</i> OILASINING TAKSONOMIK TAHLILI.....	77 – 80
Anorboyeva Sh.S. <i>ZEa MAYS L.</i> NAVLARIDA FOTOSINTETIK PIGMENTLAR MIQDORINING O'ZGARISHIGA NAMLIK DARAJALARINING TA'SIRI.....	81 – 84
Keldiyorova Sh.X., Oripov F.S. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIDAGI KIMYOVIY QO'SHIMCHALARNING TOKSIKOLOGIK BAHOSI.....	85 – 91
Ergashev A.A., Norboyeva U.T., Alikulov B.S. A. <i>ABSINTHIUM</i> NING FOTOSINTETIK PIGMENTLAR MIQDORIGA MIKROKLONAL USULDA KO'PAYTIRISHNING TA'SIRI	92-97
Fayzullayeva Sh. A., O'roqov S. X. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA TRITIKALE URUG'LARINING UNUVCHANLIGI VA O'SISHIGA EKISH ME'YORINING TA'SIRI	98-105

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3803>



SOYACHIL SALOB (ORCHIS UMBROSA KAR. ET KIR) NI MUHOFAZA QILISHGA DOIR TAVSIYALAR BERISH

Nurniyozov A.A.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Samarqand, O'zbekiston.*

Annotatsiya. Mamlakatimizda suv havzalarini ekologik holatini monitoring qilishda undagi gidrobiontlar bioxilma – xilligini doimiy ravishda monitoring qilib borish, ayniqsa suv havzalari gidrofil o'simliklar florasini tadqiq etish, undagi foydali turlardan xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlarida foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada, jumladan, suv havzalarida o'sadigan foydali va dorivor o'simliklarning chorvachilik, parrandachilik va farmasevtikada foydalaniladigan turlarni biologik xususiyatlarini o'rganish, ko'paytirish va sanoat uchun xom-ashyo yetkazib berish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Suv o'simliklaridan biri Soyachil salob (*Orchis umbrosa kar. et kir*) turi bo'lib, bu o'simlikni uchrash nuqtalari aniqlanib muhofaza qilishni zarurati tug'ulmoqda. Antropogen omillar bosimini kamaytirish va flora populyatsiyalarni turlicha muhofazaga olish chora tadbirlari asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib bu tavsiyalarni ishlab chiqarishda foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Daryo, qo'g'a, qamish, baliqchilik tibbiyot, chorvachilik, antropogen, farmakologiya, aromaterapivtik, kosmetologiya, fitosenoz, lansetsimon.

Аннотация. В нашей стране при мониторинге экологического состояния водоемов особое внимание уделяется постоянному мониторингу биоразнообразия гидробионтов в них, особенно исследованию флоры гидрофильных растений водоемов, использованию их полезных видов в ведущих отраслях народного хозяйства. В связи с этим, в частности, достигаются важные результаты в изучении биологических особенностей видов полезных и лекарственных растений, произрастающих в водоемах, используемых в животноводстве, птицеводстве и фармацевтике, их размножении и поставке сырья для промышленности. Одним из водных растений является (*Orchis umbrosa kar. et kir*), и возникает необходимость в выявлении и охране точек встречаемости этого растения. На основе мероприятий по снижению давления антропогенных факторов и различной защите популяций флоры разработаны рекомендации, которые рекомендуется использовать в производстве.

Ключевые слова: Речная, тростниковая, камышовая, рыболовная медицина, животноводство, антропогенная, фармакологическая, ароматерапевтическая, косметологическая, фитоценотическая, ланцетовидная.

Abstract. In our country, when monitoring the ecological state of water bodies, special attention is paid to the continuous monitoring of the biodiversity of hydrobionts, especially the study of the hydrophilic plant flora of water bodies, and the use of its beneficial species in leading sectors of the national economy. In this regard, important results are being achieved, including in the study of the biological properties of beneficial and medicinal plants growing in water bodies, species used in animal husbandry, poultry farming, and pharmaceuticals, their reproduction, and the supply of raw materials for industry. One of the aquatic plants is the species Soyachil salob (*Orchis umbrosa kar. et kir*), and there is a need to identify and protect this plant. Recommendations have been developed based on measures to reduce the pressure of anthropogenic factors and protect flora populations in various ways, and these recommendations are recommended for use in production.

Keywords: River, reed, reed, fishery medicine, animal husbandry, anthropogenic, pharmacological, aromatherapeutic, cosmetological, phytocenosis, lanceolate.

e-mail: nurniyofovaxtam@gmail.com

Kirish. Suv havzalarida o'sadigan o'simliklardan har yili dunyo bo'yicha million tonnagacha biomassa olinadi. MDH mamalakatlari hududida oddiy qamish 5 mln. gektar maydonni egallaydi. Daryo bo'ylarida o'sadigan qo'g'aning ho'l massa hosildorligi yiliga 1-2 kg/m² ni tashkil etishi aniqlangan [3]. Ko'pchilik suv va suv bo'yi o'simliklari xilma-xil bo'lib, ulardan sanoatning turli sohalarida, jumladan qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik tibbiyot, chorvachilik va boshqa jabhalarda to'liq foydalanilayapti. Ular orasida texnikada foydalaniladigan (qamish, qo'g'a, va boshq.) turlari mavjudki, ulardan yoqilg'i, kimyo sanoatida, qog'oz ishlab chiqarishda va qurilish maqsadlarida keng ishlatiladi [2]. Suv havzalarining dorivor o'simliklari tibbiyotda, farmakologiyada, aromaterapivtik va kosmetologik vositalar sifatida gomeopatiyada keng qo'llaniladi. Ayrim turlari yaxshi asal beruvchi (suv qalampir, igir, suvpiyoz), suv havzalari qirg'oqlarini saqlashda yaxshi fitomeliiorant sifatida (tol, qamish) hamda chiroyli ko'rinishga ega manzarali (suvpiyoz, bulduruqo't, suvxilol) turlari mavjudki, suv va suv bo'yi o'simliklarining alohida o'rganish, ishlab chiqarishga xom-ashyo yetishtirib beruvchi manba sifatida samarali foydalanish hamda eng muhimi ularni tabiiy o'sish muhitlarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Suv o'simliklariga asosan tabiiy va antropogen ta'sirlar noqulaylik tug'diradi. Tabiiy ta'sirlarga iqlimning va yashash muhitida suv rejimining o'zgarishlari, fitosenozdagi suksession almashinuvlar, bir turning o'rnini boshqasi tomonidan siqib chiqarilishi va antropogen omillar yuki ortishi natijasidan kamayib borayotgan foydali turlarni muhofaza qilib saqlab qolish **tadqiqotlarimizning dolzarb vazifasidir.**


Antropogen ta'sirlar sifatida yashash muhitlarining organik moddalar bilan ifloslanishi, gidromeliiorativ ishlar natijasida suv havzalari rejimining keskin o'zgarishlari, suv transportlari ta'sirida makrofit o'simliklarni zararlanishi, foydali suv o'simliklarini ko'p miqdorda rejasiz yig'ishni keltirib o'tish mumkin. Muhofazaga muhtoj turlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish uchun noyob, yo'qolib borayotgan va qimmatli xo'jalik ahamiyatiga ega turlarni populyasiyalari bilan birgalikda ularning yashash muhitlarini ham muhofaza qilish maqsadga muvofiq. Bu o'simliklarni muhofaza qilishni populyasiya darajasida amalga oshirish orqali bu maqsadga erishish mumkin. Floramizda mavjud suv va suv bo'yi o'simliklari orasida dorivor, yem-xashak, texnikada va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan turlar ko'pchilikni tashkil etishini nazarda tutadigan bo'lsak, bu o'simliklardan foydalanishni samarali tashkil etish, ular o'sadigan muhitlar ekologiyasi saqlash, qolaversa intensiv ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish mazkur muammolarni yechimi hisoblanadi. Shunday ekan, suv havzalarida o'suvchi o'simliklardan to'g'ri va samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish, ular yashaydigan muhitlarni muhofaza qilish, ularni tabiiy ko'payishi uchun insonlar tomonidan salbiy ta'sirni kamaytirish orqali ularni saqlab qolish va insonlar ehtiyoji uchun keng foydalanish imkoniyatini yaratish mumkin. Noyob suv o'simliklarini muhofaza qilish bo'yicha MDHning qator davlatlarida e'tiborga molikishlar amalga oshirilgan [4].

Tadqiqot obyekti va metodlari. Samarqand viloyatidagi botqoqlashgan tog' soylari (Omonqo'tonsoy, Ohaliksoy, Mironqul, Mehnatkash), buloqlar gidrofil florasini tadqiqotning obyektlari hisoblanadi. Tadqiqotning metodi sifatida gidrofil floranining noyob, kam tarqalgan va foydali o'simliklarning Samarqand viloyati suv havzalarida tarqalish xaritasi ArcGIS 10 dasturi asosida yaratilgan hamda geografik va bioekologik uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalar tahlili. O'zbekiston suv havzalarida o'sadigan noyob, foydali yuksak suv va suv bo'yi o'simliklarining muhofaza qilishning alohida chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan. Tadqiqotlarimiz davomida Samarqand viloyati suv havzalarida Soyachil solab (Orchis umbrosa Kar. et Kir) turi kam uchrashi, ba'zilarini mahalliy aholi va boshqa omillar tufayli populyasiyalari keskin qisqarib borayotganligini guvohi bo'ldik [1]. Quyida ularning biologik xususiyatlari, tarqalishi va muhofazasi to'g'risida batafsil to'xtalib o'tamiz. Soyachil solab (Orchis umbrosa Kar. et Kir) Solabdoshlar (Orchidaceae Juss.) oilasiga mansub ko'p yillik tugunak ildizpoyali o't o'simlik. Bo'yi 30-45 sm ga yetadi. Barglari odatda 6-7 ta, uzunchoq yoki uzunchoq-lansetsimon, o'tkirlashgan yoki to'mtoq. To'pgulining uzunligi 5-15 sm, uzunchoq silindrsimon. Gullari qizg'ish-qirmizi, pushti rangda Samarqand viloyati sharoitida aprel-may oylarida gullaydi (1-rasm).



Kriptofit, gigrofit. Botqoqlashgan tog‘ soylar, buloqlar atrofida uchraydi. Samarqand viloyatining Omonqo‘tonsoy (N-39.2967: 66.9178), Ohaliksoy (N-39.5032: E-66.8629), Sevarsoy (N-39.4169: E-66.9585), Mironqul (N-39.5140: E-66.8251), Mehnatkash (N-39.4980: E-66.5943) kabi tog‘ soylari, buloqlari atrofida yakka-yakka holda o‘sadi (1-xarita).



Gullaganda chiroyli ko‘rinish hosil qilganligi sababli kishilar tomonidan ko‘p yulinadi. Tuganagiva yerustki qismida flavonoidlar, fenolkarbon kislotalar, kumarinlar va antosianlar mavjud. Ekstraktlari antioksidantlik xususiyatini namoyon qiladi. Sun’iy suv havzalarini landshaft dizaynida keng foydalanish mumkin. Alohida muhofaza chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan.

42

hisobga olish hamda ularning holatini doimiy nazorat qilish; har bir hududda noyob o'simliklarni muhofaza qilish bo'yicha maxsus guruh (komissiya) tashkil etish va bu guruhning ishini qonun; noyob, kam tarqalgan turlarni muhofaza qilishni optimallashtirish maqsadida o'sish joylari va chegaralarini aniqlash, mutaxassislar ishtirokida muhofaza qilish rejimini ishlab chiqish; biotexnologik tadbirlarni (sun'iy ko'paytirish, o'xshash biotoplarni yaratish) ishlab chiqish; noyob, muhofazaga muhtoj va qimmatli xo'jalik ahamiyatiga ega turlar va ularni o'sish muhitlariga antropogen yukni maksimal darajada kamaytirish; muhofazaga muhtoj va qimmatli xo'jalik ahamiyatiga ega o'simlik turlarini tabiiy (polikultura usuli) va sun'iy sharoitlarda (botanika bog'lari, pitomnik, hovuz va boshqa sun'iy suv havzalari) ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; muhofazaga muhtoj va qimmatli xo'jalik ahamiyatiga ega o'simlik turlarini urug' banki va urug' fondini yaratish; muhofazaga muhtoj va qimmatli xo'jalik ahamiyatiga ega o'simlik turlarini to'liq inventarizatsiya qilish va ularni tarqalish areali aks etgan GAT xaritalarini tuzish; muhofazaga muhtoj turlarni soni, mahsuldorligi va eksplutasion zahiralarni aniqlash; qimmatli, muhofazaga olingan o'simliklarning o'sish joylarida maxsus botanik, biologik va landschaft zakazniklar (mikrozakazniklar), rezervatlar tashkil etish; qimmatli, muhofazaga olingan o'simliklar o'sadigan joylarda yashovchi mahalliy aholi o'rtasida o'simlik dunyosini muhofaza qilishga oid maqsadli tushuntirish ishlarini olib borish; ushbu tadbirlarni samarali amalga oshirish uchun iloji boricha ko'proq mutaxassislarni (ilmiy xodimlar, biologiya va ekologiya fanlari o'qituvchilari, o'rmon xo'jaliklari xodimlari) jalb etish maqsadga muvofiq. hisoblanadi [7].

Xulosa. Soni areali kamayib borayotgan turlar tarkibini shakllantirib maxsus muhofaza zonalari tashkil etib uchrash nuqtalarini aniqlab antropogen omillar ta'sir yukini kamaytirib yuqoridagi maxsus tavsiyalardan foydalangan holda foydali o'simliklarimizni saqlab qolishga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.B.Yunusov., Y.Sh.Tashpo'latov., A.A.Nurniyozov., M.H.Begmatova, Sh.Sh.Shernazarov. Botanika suv o'simliklari. O'quv qo'llanma. Nashr matbaa markazi, 2024 yil.
2. Володина А.А., Герб М.А., Губарева И.Ю., Соколов А.А. О находках редких видов макрофитов в водоёмах и реках Калининградской области // Гидробиотаника 2015: Материалы VIII Всероссийской конференции с международным участием по водным макрофитам. – Борок, 2015. С. 88-90.
3. Келдибеков С. Флора и растительность рыбоводных прудов Чирчик-ангреновского бассейна. – Ташкент, 1981. 114 с.
4. Таран А.А. Редкие растения водоемов о. Сахалин // Гидробиотаника: методология и методы: Материалы школы по гидробиотанике. – Борок, 2003. С. 183-184.
5. Файвуш Г.М. Редкие водные виды сосудистых растений Армении // Гидробиотаника 2015: Материалы VIII Всероссийской конференции с международным участием по водным макрофитам. – Борок, 2015. С. 58-60.
6. Шелест В.Д., Болдырев В.А., Седова О.В. Редкие и охраняемые виды растений во флоре озёр-стариц реки Медведицы // Гидробиотаника 2015: Материалы VIII Всероссийской конференции с международным участием по водным макрофитам. – Борок, 2015. С. 246-249.
7. A.A. Nurniyozov., Tashpo'latov Y.Sh. Noyob va foydali gidrofil o'simliklarning muhofazasiga oid yangicha yondashuv. Tavsiyanoma. Samarqand 2022.

Maqola Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori F. Kabulova tahriri ostida nashr qilindi.